


### 2019-yilning yanvar-mart oylarida QURILISH ISHLARI

Joriy yilning yanvar-mart oylarida Qashqadaryo viloyatida jami 812,6 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,1 % ni tashkil etdi.


Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 165,5 mlrd.so'mni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan 161,8 % ga o'sish qayd etildi.




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa korxonalarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ularning hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 56,9 %i to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,7 punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 113,0 % ni tashkil etgan holda 462,1 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 8,0 % punktga kamayib, 22,7 % ni tashkil etdi va 185,0 mlrd. so'm miqdori qayd etildi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 84,7 % ni tashkil etdi.

#### jami qurilish ishlaridagi ulushi




### Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmi (mlrd. so`m)



Hududlar kesimida qurilish ishlari tarkibida Qarshi shahrining qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari viloyat bo'yicha jami hajmning 23,5 % ni yoki 196,3 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarildi. Qarshi shahrida yirik qurilish tashkilotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalarning ko'pligi hisobidandir.

Shu bilan birga Qarshi shahrida "Vatanparvarlar bog'ining " foydalanishga topshirilishi, ko'p qavatli turar-joylarning qurilishi jadal olib borilayotganligi mazkur hududdagi qurilish ishlarining katta hajm bo'lishini ta'minlamoqda.

Hududlarda qurilish ishlarining o`rish suratlari  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan)



Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o`rish sur`ati;

**Koson tumanida** (120,1 %) kuzatildi:

- "Koson neft-gaz qidiruv ekspeditsiyasi" sho'ba korxonasi va "Neft va gaz quduqlarini sinash" AJ tomonidan qidiruv burg'ulash ishlari amalga oshirilmoqda;


**Shahrisabz shahrida**(115,7 %) kuzatildi:

- "Hisorakgidroqurilish" MCHJ tomonidan suv ombori, kanal qurilishi amalga oshirilmoqda;

**Kitob tumanida** (111,3 %) qurilish ishlarining yuqori o`rishiga sabab:

- Yangi usti yopiq suv inshooti, basketbol maydonchasi va sun'iy qoplamali futbol maydonchasi qurilishi asos bo'lmoqda.

**Hududlar kesimida qurilish ishlari  
(jamiga nisbatan)**




Hududlar kesimida jami qurilish ishlarining eng katta qismini Qarshi shahrining (23,5 %) ulushi tashkil qilmoqda. Bunday katta ulushga ega bo'lishi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 68 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning tashkil topganligi bilan izohlanadi. Keyingi o'rinlarda Koson (14,2 %) va Qarshi (10,4 %) tumanlari bormoqda.

Jami qurilishdagi eng past ulushga ega bo'lganlar, Dehqonobod (2,5 %) hamda Shahrizabz (2,3 %) tumanlaridir. Bu ikkala tumanda ham, yirik qurilish tashkilotlari yo'qligi bilan izohlanadi.

**QASHQADARYO VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI****Qurilish ishlari hajmi**

	Yirik qurilish tashkilotlari (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shudavriga nisbatan, % da	Kichik korxonalar va mikrofirmalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Norasmiy sektor (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>165,5</b>	<b>161,8</b>	<b>462,1</b>	<b>113,0</b>	<b>185,0</b>	<b>84,7</b>
<b>Qarshi sh</b>	31,0	136,2	149,5	102,8	15,7	330,5
<b>Shahrisabz sh</b>	25,2	190,1	33,5	110,5	4,9	106,5
<b>tumanlar:</b>						
<b>G`uzor</b>	1,2	-	17,4	98,7	13,6	108,8
<b>Dehqonobod</b>	-	-	5,6	272,5	13,4	83,3
<b>Qamashi</b>	-	-	12,2	62,2	14,6	228,7
<b>Qarshi</b>	0,1	15,8	65,2	115,2	16,8	90,3
<b>Koson</b>	93,8	178,3	18,9	66,6	12,2	54,0
<b>Kitob</b>	-	-	28,0	199,0	21,1	71,0
<b>Mirishkor</b>	-	-	11,2	5,8 m	11,5	57,7
<b>Muborak</b>	5,5	55,2	19,8	101,2	6,4	5,0 m
<b>Nishon</b>	2,9	292,3	3,8	30,2	12,4	269,2
<b>Kasbi</b>	2,4	42,0 m	13,7	98,7	14,5	95,1
<b>Chiroqchi</b>	-	-	42,9	403,3	13,4	33,5
<b>Shahrisabz</b>	-	-	13,2	116,0	5,1	93,6
<b>Yakkabog`</b>	3,4	59,0 m	27,2	124,7	9,4	56,6

**Hududlar kesimida qurilish ishlari**



Joriy davrda ham jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 56,9 %ni tashkil etdi. Qurilish ishlari hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi quyidagi tumanlarda nisbatan yuqori

Shahrisabz sh, Yakkabog' va Qarshi tumanlarida qayd etildi. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng past ulushi esa Koson tumani hamda Nishon tumaniga to'g'ri kelmoqda. Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 20,4 %i to'g'ri kelmoqda. Qurilish ishlari hajmida norasmiy sektorning yuqori ulushi Dehqonobod hamda Mirishkor tumanlarida kuzatildi. Eng past ko'rsatkich esa Qarshi shahrida qayd etildi.



Dehqonobod hamda Mirishkor tumanlarida kuzatildi. Eng past ko'rsatkich esa Qarshi shahrida qayd etildi.



# Faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



## Binolar va inshootlarni qurish

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2,5 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,8 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yilning shu davridagi ko'rsatkichga nisbatan 6,8 % punktga ko'payib, 60,2 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,2 % punktga kamayib, 33,7 % ni tashkil etdi.



## Fuqarolik obyektlarini qurish

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 47,7 % ni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,3 % punktga ko'paydi.


Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 52,3 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,3 % punktga kamaydi.




## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 14,0 % punktga ko'paydi va 68,2 % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga esa 31,8 % to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 14,0 % punktga kamaydi.



● Binolar va inshootlarni qurish ● Fuqarolik obyektlarini qurish ● Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari




Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari 555,6 mlrd.so'mni tashkil qildi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 103,6 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,5 % punktga ko'paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari 153,4 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,3 % punktga ko'paydi.



### Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari (jamiga nisbatan ulushi)



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 763,3 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 93,9 foizini tashkil qildi. Shu jumladan mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 49,3 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 6,1 foizini tashkil qildi.



**Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

**A.Isaev**

Aloqa telefoni:

**(75) 221-32-47**